

## D.TRAMP MA'MURIYATINING AVG'ONISTON YO'NALISHIDAGI HOZIRGI SIYOSATI

**Joldasbekova Roza Kurbanbek qizi**

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti  
Amaliy siyosatshunoslik yo'nalishi magistranti*

**Nasimov Sunnatillo Valijonovich**

*Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola 2025-yil yanvar oyida AQSH prezidenti lavozimiga qayta saylangan Donald Tramp ma'muriyatining Afg'onistonga nisbatan olib borayotgan tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, xususiyatlari va oqibatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada "Amerika birinchi o'rinda" (America First) doktrinasi asosida shakllantirilayotgan yangi yondashuv, xususan, gumanitar yordamning keskin qisqarishi, moliyaviy sanksiyalar, harbiy bazalar masalasidagi retorik keskinlik va afg'on qochqinlari muammosi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, ushbu siyosatning Tolibon hukumatining mintaqaviy munosabatlariga va oddiy afg'on aholisining turmushiga ta'siri tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Donald Tramp, Afg'oniston, Tolibon, "Amerika birinchi o'rinda" siyosati, AQSH tashqi siyosati, Bagram havo bazasi, afg'on qochqinlari, gumanitar yordam.*

### KIRISH

2025-yil yanvar oyida Donald Trampning AQSH prezidentligiga qayta saylanishi Amerika tashqi siyosatida, jumladan Afg'oniston yo'nalishida ham tub burilish yasadi. Bayden ma'muriyati Tolibon hukumatini rasman tan olmagan bo'lsa-da, ma'lum darajada gumanitar aloqalarni saqlab kelgan va uchinchi davlatlarda (xususan, Qatarda) Tolibon vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazgan edi. Trampning "Amerika birinchi o'rinda" tamoyiliga asoslangan yondashuvi esa Afg'onistonga nisbatan siyosatni butunlay qayta ko'rib chiqishga olib keldi.[1]

Afg'onistonda 2021-yil avgustida Tolibon hokimiyatni qo'lga kiritganiga to'rt yil to'ldi. Mamlakatda mojarolar bilan bog'liq xavfsizlik muammolari sezilarli darajada kamaygan bo'lsa-da, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik zaifliklar saqlanib qolmoqda. 2025-yil iyulida Rossiya Islomiy Afg'oniston Amirligi (IAA)ni rasman tan olgan birinchi davlat bo'ldi. Shunga qaramay, xalqaro sanksiyalar va Tolibon hukumatining keng tan olinmaganligi milliy institutlarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va oddiy afg'onlarning qiyinchiliklarini yanada kuchaytirmoqda.[2]

Tramp ma'muriyatining Afg'onistonga nisbatan siyosatidagi eng muhim o'zgarish bu mamlakatning AQSH tashqi siyosatidagi o'rni va ahamiyatini qayta belgilash bo'ldi. Yangi ma'muriyat Afg'onistonni endi uzoq muddatli barqarorlashtirish va davlat qurilishi loyihalari markazida emas, balki tor doiradagi milliy xavfsizlik manfaatlari nuqtai nazaridan ko'ra boshladi.

Ma'muriyat o'z faoliyatining dastlabki 90 kuni ichida AQSH Xalqaro Taraqqiyot Agentligining (USAID) Afg'onistondagi dasturlarini to'xtatdi. Bu qaror taxminan 1,8 milliard dollarlik yordamning qisqarishiga olib keldi. 2025-yil martiga kelib, USAID shartnomalarining 83 foizi bekor qilindi.[3] Bu qadam AQShning "Amerika birinchi o'rinda" siyosatining amaliy ifodasi sifatida baholanmoqda.

Qiziqarlisi shundaki, Trampning saylovoldi kampaniyalarida Afg'oniston masalasi deyarli ko'tarilmagan bo'lsa-da, u hokimiyatga kelganidan so'ng mamlakatga oid bir qator keskin bayonotlar berdi. Xususan, u 2021-yilda AQSh qo'shinlari chiqib ketayotganda qoldirgan harbiy texnikalarni Tolibon qaytarib berishini talab qildi. Tolibon matbuot kotibi esa bu talablarni rad etib, Afg'onistonda qolgan Amerika texnikalari IAAning qonuniy mulki ekanligini bildirdi.[4]

"Afg'oniston" so'zi Tramp ma'muriyatining kun tartibida muhim o'rin tutmasa-da, prezidentning vaqti-vaqti bilan beradigan bayonotlari, ayniqsa Bagram havo bazasi masalasidagi qat'iy pozitsiyasi, uning Afg'onistonga bo'lgan qiziqishi butunlay so'nib ketmaganligini ko'rsatadi.

Tramp ma'muriyatining Afg'onistonga nisbatan siyosatidagi eng muhim o'zgarishlardan yana biri bu gumanitar yordamning deyarli butunlay to'xtatilishidir. Bayden davrida AQSH Afg'onistondagi gumanitar sa'y-harakatlarning eng yirik donori bo'lib, 2021-yil oktyabridan 2024-yil dekabrigacha 3,63 milliard dollar ajratgan edi.[5] Bu mablag' mamlakatdagi gumanitar tashkilotlarning asosiy moliyaviy manbai edi.

Natijada, 200 dan ortiq sog'liqni saqlash muassasalari yopildi, bu taxminan 1,8 milliondan 2,4 milliongacha afg'onning birlamchi tibbiy xizmatdan mahrum bo'lishiga sabab bo'ldi.[6] 2025-yilda 3,5 million bola o'tkir to'yib ovqatlanmaslikdan aziyat chekishi prognoz qilinmoqda, bu o'tgan yilga nisbatan 20 foizga ko'pdir.[7] USAID moliyalashtirishini to'xtatganidan so'ng, Jahon Oziq-ovqat Dasturi (WFP) 15 million oziq-ovqat yordamiga muhtoj afg'onning 6 milliondan ortig'i qishning qattiq sovuqlarida yetarli yordam ololmasligini ma'lum qildi.[8]

Tolibon iqtisodiyot vazirining o'rinbosari 2025-yil yanvarida, yordamning vaqtincha to'xtatilishidan so'ng, 28 viloyatda faoliyat yuritayotgan 50 ta xalqaro tashkilot gumanitar faoliyatini to'xtatganini e'lon qildi.[9] Bu tashkilotlar nafaqat aholiga xizmat ko'rsatish, balki mahalliy iqtisodiyotga ham hissa qo'shgan edi.

AQSH yordamining to'xtatilishi Afg'oniston iqtisodiyotiga ham zarba berdi. 2025-yil yanvarida yordam to'xtatilishi e'lon qilinganidan so'ng, afg'oniy bir hafta ichida 10 foizdan ko'proq qadrsizlandi. Keyinchalik valyuta biroz barqarorlashgan bo'lsa-da, mamlakat iqtisodiy zaifligicha qolmoqda.

Tramp ma'muriyati va Tolibon o'rtasidagi munosabatlarda harbiy masalalar alohida o'rin tutadi. Prezident Tramp 2025-yil fevral va sentabr oylarida Tolibondan Bagram havo bazasini qaytarib berish talabi bilan chiqdi. Bu baza bir vaqtlar AQShning Afg'onistondagi eng yirik harbiy bazasi bo'lgan va 2021-yilda Amerika qo'shinlari chiqib ketganidan so'ng Tolibon qo'lga o'tgan edi.[10]

Tramp bazani qaytarish zarurligini asosan Xitoy omili bilan izohladi. 2025-yil sentabrda Londondagi matbuot anjumanida u Bagram "Xitoy yadro qurollarini ishlab chiqaradigan joydan bir soatlik masofada joylashgan"ligini ta'kidladi.[11] Bu bayonot Tramp ma'muriyatining global geosiyosiy raqobatda Afg'oniston hududidan potentsial foydalanish istagini ko'rsatadi.

Biroq, Trampning Xitoyning Bagramda harbiy mavjudligi haqidagi da'volari Tolibon tomonidan qat'iy rad etildi. Tolibon matbuot kotibi Zabihulloh Mujohid 2025-yil martida bu da'volarni "asossiz" deb atadi. Shuningdek, 2025-yil aprelida Bagramda va Afg'oniston osmonida Amerika harbiy samolyotlari ko'rilgani haqidagi mish-mishlar ham rad etildi.[12]

Tolibon rasmiylari Bagram masalasida qat'iy pozitsiyada turibdi. Mudofaa vaziri vazifasini bajaruvchi Muhammad Yoqub (Ahmad Shoh Masudga qarshi kurashgan Tolibon asoschisi Mulla Umarning o'g'li) amerikaliklar 2021-yilda harbiy bazalarni saqlab qolmoqchi bo'lganlarida, yana 20 yil jang qilishga tayyor ekanliklarini bildirganini eslatdi.[13] Shu bilan birga, Tolibon xorijiy harbiy mavjudlikka yo'l qo'ymaslik borasidagi qat'iy pozitsiyasini saqlab qolgan holda, AQSh bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirishga ochiq ekanligini bildirdi.

Tramp ma'muriyatining Afg'oniston siyosatining yana bir muhim jihati bu afg'on qochqinlariga nisbatan munosabatdir. AQShda anti-immigratsiya qonunlari kuchayib borayotgan bir paytda, Tramp ma'muriyati Afg'oniston uchun Vaqtinchalik Himoyalangan Maqom (TPS)ni bekor qildi. Bu qaror mamlakatning "yaxshilangan xavfsizlik holati" va "afg'onlarning AQShda vaqtincha qolishiga ruxsat berish Amerika Qo'shma Shtatlarining milliy manfaatlariga zid" ekanligi bilan asoslandi.[14] TPSning bekor qilinishi 2025-yil iyulida kuchga kirdi va AQShdagi 11 000 dan ortiq afg'on darhol hibsga olinish va deportatsiya qilinish xavfiga duchor bo'ldi.

2025-yil noyabr oyida Vashingtonda Oq uy yaqinida sodir bo'lgan otishma hodisasi immigrantlarga qarshi choralarni yanada kuchaytirishga sabab bo'ldi. Hodisada ikki milliy gvardiyachi yaralandi va ulardan biri halok bo'ldi. Hujumda gumon qilinayotgan shaxs afg'onistonlik muhojir Rahmonullo Lakanval ekanligi ma'lum bo'ldi.[15]

Ushbu voqea Tramp ma'muriyati tomonidan immigrantlarga qarshi choralarni keskin kuchaytirish uchun asos sifatida ishlatildi. Prezident Tramp o'zining Truth Social sahifasida: "AQSh tizimi to'liq tiklanishiga imkon berish uchun uchinchi dunyoning barcha mamlakatlaridan immigratsiyani butunlay to'xtataman va sobiq prezident Jo Bayden tomonidan berilgan millionlab noqonuniy kirish ruxsatnomalarini bekor qilaman", deb yozdi.[16]

Ichki Xavfsizlik Departamenti rahbari vazifasini bajaruvchi huzuridagi AQSh Fuqarolik va Immigratsiya Xizmatlari direktori Jozef Edlou 19 ta "xavotir uyg'otadigan" davlat, jumladan Afg'oniston, Kuba, Gaiti, Eron va Somaliliklarning barcha yashil kartalarini to'liq va qattiq nazoratdan o'tkazishni buyurdi.[17] AQSh Davlat kotibi Marko Rubio esa afg'on pasporti bilan sayohat qiluvchi barcha shaxslar uchun vizalar berishni vaqtincha to'xtatilganini e'lon qildi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, AQShdagi afg'on muhojirlari eng qattiq tekshiruvdan o'tgan immigranlar qatoriga kiradi. Migratsiya Siyosati Instituti prezidenti Endryu Seli afg'onistonlik gumonlanuvchi "CIA tomonidan juda keng qamrovli tekshiruvdan o'tgan"ligini ta'kidladi.[18] Biroq, bu voqea butun afg'on jamoasiga nisbatan salbiy munosabatni kuchaytirdi.

Tramp ma'muriyati va Tolibon o'rtasidagi munosabatlar faqat ziddiyatli masalalardan iborat emas. 2025-yil davomida bir necha amerikalik mahbuslarning ozod etilishi ikki tomon o'rtasidagi aloqalar, asosan Qatar vositachiligida, davom etayotganligini ko'rsatdi.

2025-yil yanvarida, Donald Tramp inauguratsiyasidan bir necha soat oldin, Tolibon Bayden ma'muriyati bilan mahbus almashinuvi kelishuviga erishdi. Ushbu kelishuv natijasida Tolibon tomonidan ushlab turilgan ikki amerikalik fuqaro ozod qilindi va evaziga 2008-yilda AQShda umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan bir tolibon a'zosi qo'yib yuborildi.[19]

2025-yil martida, Tolibon hokimiyatni qo'lga olganidan keyin birinchi marta, AQSh delegatsiyasi Kobulga tashrif buyurdi. Delegatsiya tarkibiga AQShning garovga olinganlar bo'yicha maxsus vakili Adam Boehler va sobiq elchi Zalmay Xalilzad kirgan edi. Ushbu tashrif 2022-yil dekabrda Afg'onistonda ushlangan amerikalik fuqaro Jorj Gletsmannning ozod etilishi bilan yakunlandi.[20]

Garchi Tolibon tarafdorlari ijtimoiy tarmoqlarda bu tashrifni katta hayajon bilan kutib olgan bo'lsa-da, ikki tomon voqeani turlicha talqin qildi. Xalilzadning so'zlariga ko'ra, Tolibon Gletsmanni Qatarining vositachiligida AQSh prezidenti va xalqiga xayrixohlik ishorasi sifatida ozod qilgan.[21] Tolibon esa amerikalik mahbuslarni ozod qilishni IAAning tashqi aloqalarini normallashtirish sa'y-harakatlarining bir qismi deb hisoblaydi.

Mahbus almashinuvidan so'ng, AQSh Davlat departamenti Sirojiddin Haqqoniy (Haqqoniylar tarmog'i rahbari va Tolibonning amaldagi ichki ishlar vaziri) va ikki boshqa Tolibon a'zosining qo'lga olinishi haqida ma'lumot berganlar uchun belgilangan millionlab dollarlik mukofotlarni bekor qildi.[22] Biroq, Haqqoniy "Maxsus belgilangan global terrorchi" va "Chet ellik terrorchi tashkilot" ro'yxatida qolmoqda.

2025-yil sentabrda Boehler va Xalilzad ikkinchi marta Kobulga tashrif buyurdi va ular amerikalik mahbuslarning ozod etilishi masalasi "Prezident Tramp uchun juda muhim" ekanligini ta'kidladilar.[23] Tolibon tomoni esa Vashingtondagi afg'on elchixonasini qaytarib olish va Afg'onistonning muzlatilgan aktivlarini qaytarish kabi muhim masalalarni ko'tarishda davom etmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Tramp ma'muriyatining ikkinchi muddatidagi Afg'oniston siyosati "Amerika birinchi o'rinda" tamoyili asosida shakllanib, to'rtta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lmoqda: gumanitar yordamning keskin qisqarishi, harbiy-siyosiy bosim (xususan, Bagram bazasi masalasi), afg'on qochqinlariga nisbatan

immigratsiya siyosatining qattiqlashuvi va Tolibon bilan cheklangan, asosan mahbus almashinuviga qaratilgan aloqalar.

AQSH endi Afg'onistonni o'zining global ustuvor yo'nalishlarida muhim o'rin tutmaydigan davlat sifatida ko'radi. Uzoq muddatli barqarorlashtirish va davlat qurilishini qo'llab-quvvatlash o'rniga, Vashingtonning munosabati asosan terrorizmga qarshi kurash va garovga olinganlarni qaytarish kabi tor masalalarga qaratilgan.

Bu siyosat natijasida millionlab afg'onlar og'ir gumanitar sharoitda qolmoqda. Gumanitar tashkilotlarning faoliyati qisqargani, iqtisodiy ahvolning yomonlashuvi va qochqinlar oqimining ko'payishi Afg'oniston oldida turgan asosiy muammolardir.

Tramp ma'muriyatining Afg'onistonni past siyosiy ustuvorlik deb hisoblashi, agar yirik geosiyosiy o'zgarishlar uni yo'nalishini o'zgartirishga majbur qilmasa, o'zgarishi deyarli mumkin emas.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hakimi, H. (2025). Evolving US Foreign Policy on Afghanistan Under Second Trump Presidency. Center for Conflict and Humanitarian Studies Policy Briefing Paper, September 2025.

2. Hakimi, H. (2025). What the West can do now in Taliban-ruled Afghanistan. Chatham House, 05 February 2025.

3. SIGAR (2025). Quarterly Report to the United States Congress, 30 April 2025.

4. VOA (2025). Trump seeks return of US military equipment from Afghan Taliban, 20 January 2025.

5. SIGAR (2025). Quarterly Report to the United States Congress, 30 April 2025.

6. NPR (2025). U.S. puts virtually all foreign aid on 90-day hold, issues 'stop-work' order, 24 January 2025.

7. The Guardian (2025). Rubio says 83% of USAid programs terminated after six-week purge, 10 March 2025.

8. UN News (2025). Senior envoy warns Iran-Israel conflict deepening crisis in Afghanistan, 23 June 2025.

9. Amu (2025). Taliban official says US aid freeze has forced 50 humanitarian groups to suspend operations, 29 January 2025.

10. NDTV (2025). Trump On Bagram Airbase, 27 February 2025.

11. Fox News (2025). Trump: US trying to get Bagram Airbase 'back' from Taliban in Afghanistan, 18 September 2025.

12. Arab News (2025). Taliban deny reports of American airbase takeover, 08 April 2025.

13. Российская газета (2025). Власти Афганистана предостерегли США от повторения "ошибок прошлого", 21 September 2025.

14. DW (2025). Germany allows Taliban envoys to facilitate deportations, 21 July 2025.

15. Kabul Now (2025). Taliban claims the most stable currency in South Asia, 06 May 2025.
16. Gazeta.uz (2025). Tramp "barcha uchinchi dunyo davlatlaridan" AQShga migratsiyani to'xtatishga va'da berdi, 28 noyabr 2025.
17. KVUE (2025). Trump pushes for more restrictions on Afghan refugees. Experts say many are already in place, 27 noyabr 2025.
18. CNN (2025). Two Americans held in Afghanistan traded for Taliban prisoner in final Biden deal delayed until Trump took office, 21 January 2025.
19. CNN (2025). American detained by Taliban in Afghanistan is freed in deal mediated by Qatar, 20 March 2025.
20. Al Jazeera (2025). Taliban releases US detainee George Glezmann in Trump administration deal, 20 March 2025.
21. BBC (2025). US drops bounties on key Taliban leaders, 25 March 2025.
22. The Diplomat (2024). Evaluating the Taliban's Economic Policies, 13 September 2024.
23. The Iran Times (2023). Iran accounts for 35% of Afghanistan's import market, 04 November 2023.